XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 24-may VI-92-73-11-155-K/24 Dang‘ara tumani

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori ijrosi doirasida Dang‘ara tumani hududidagi istirohat bog‘i, ziyoratgoh va qabristonlar nomini davlat reestriga kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga ilova qilingan Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar to‘g‘risidagi Namunaviy nizomga asosan o‘tkazilgan hatlov davomida tumandagi 1 ta istirohat bog‘i, 2 ta ziyoratgoh va 8 ta qabristonlar nomlari davlat reestriga kiritilmaganligi aniqlangan.

Yuqoridagilarga ko‘ra, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash tuman komissiyasiga iltimosnomalar kiritilganligi hamda tuman komissiyasi tomonidan olib borilgan hatlov natijalarini inobatga olib, 2024-yil 7-martdagi 05-19-01-370-sonli Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komisiyasining yig‘ilish bayoni, «Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Umarovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Umarovning tumandagi istirohat bog‘i, ziyoratgoh va qabristonlar nomlarini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reestriga kiritish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

3. Dang‘ara tuman hududidagi davlat reestriga kiritilayotgan istirohat bog‘i, ziyoratgoh va qabristonlar nomlari 1-2-3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda geografik obyektlarning ro‘yxatidan o‘tkazilgan nomlaridan foydalanishi belgilansin.

5. Tuman hokimining Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (N.Umarov)ga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabr kunidagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori ijrosi doirasida tuman hududidagi istirohat bog‘i, ziyoratgoh va qabristonlarni Davlat reestriga kiritish bo‘yicha qonunchilik talablariga asosan takliflarini tayyorlab belgilangan tartibda viloyat komissiyasiga kiritsin.

6. Tuman statistika bo‘limi (T.Kimsanov), O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyat boshqarmasi Dang‘ara tuman filiali (M.Isambayev)larga tumandagi reestrga kiritilmagan istirohat bog‘i, ziyoratgoh va qabristonlar nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish va reestrga kiritish bo‘yicha viloyat komissiyasiga malumotlarni taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qaror “Dang‘ara” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining barcha doimiy komissiyalari hamda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i I.Usmonovlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-92-73-11-155-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Dang‘ara tumanidagi istirohat bog`i to‘g‘risida MA’LUMOT

t/r	Nomlanishi	Manzili	Tarixiy-ilmiy asosi
1.	Dang`ara Istirohat bog`i	Uvaysiy MFY	Ushbu istirohat bog`i O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng 1992-1993 yillarda tashkil etilgan. Tuman markazida joylashganligi sababli «Dang`ara tumani Istirohat bog`i» deb nomlangan. (Hech qanday ilmiy asosga ega emas).

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-92-73-11-155-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Dang‘ara tumanidagi ziyoratgohlar to‘g‘risida

MA’LUMOT

t/r	Nomlanishi	Manzili	Tarixiy-ilmiy asosi
2.	**Kichik Oqtepa** ziyoratgoxi	Katta Oqtepa MFY	Oqtepa joy nomidan olingan bo‘lib xonliklar vaqtida balandligi 20 metr bo‘lgan.O‘rta asrlarda ikki xil vazifani bajargan 1g‘dushmandan ogox qiladigan tepalik va 2-qo‘rgon vazifasini bajargan.Tepalikni yon atrofidagi joylarda odamlar sopol xunarmantchiligi bilan shugillangan.Tarixiy yodgorlik sifatida 2012-yilda ro‘yxatga olingan.Yefxminan 150 yildan buyon qabriston vazifasini bajarib kelmoqda .Ushbu tepalik xali to‘liq o‘rganilmagan .
5.	**Katta Oqtepa** ziyoratgoxi	Katta Oqtepa MFY	Ushbu ziyoratgoh I-VII asrlar arxeakogik yodgorliggi hisoblanib davlat muhofazasiga olingan. Maydoni 70 so‘tihni tasshkil etadi ziyoratgohda joylashgan 3-4 metr balandlikda yagona sag‘ana mavjud bo‘lib boshqa hech qanday qabrlar mavjud emas.

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2024-yil 24-maydagi
VI-92-73-11-155-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Dang‘ara tumanidagi qabristonlar to‘g‘risida MA’LUMOT

t/r	Nomlanishi	Manzili	Tarixiy-ilmiy asosi
1	**Yaltir** qabrstoni	Oqjar MFY	Yaltiri qabristoni ilgari yoltir nomi bilan yuritib kelingan hududda ko‘l mavjud bo‘lib tunda oy nurida yaltirab ko‘rinib turgan qishloq nomi shu tariqa yaltir deb yuritilib kelinib keyinchalik ko‘lni o‘rnida qabriston bo‘lib shu qabristonga hududdagilar dafin etilganligi sababli qabriston shu Yaltir nomi bilan atala boshlagan.
2	**Kishnovichota** qabrstoni	Shodlik MFY	Ushbu maqbara XVII asrga taaluqli bo‘lib Bu maqbaraga Sayyid Jalolxon to‘ra o‘g‘li Sayyid A’zamxon to‘ra dafn etilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u xayaonlar tilini bilgan, o‘z davrida bu xududga yov bostirib kirganda tepalikka chiqib, ot bo‘lib kishnab, otlarga buyruq bergan. Shunda dushman otlari ustidagi askarlarni uloqtirib ortga qarab qocha boshlashgan. Shu sabab Sayyid A’zamxon to‘rani “Kishnog‘ich ota” deb atay boshlashgan. Vafotidan so‘ng bu kishi dafn eitlgan joyga maqbara qurishgan. Ushbu mavbara Xudoyorxon xukmronligining uchinchi davrida ta’mirlangan. Shuningdek 2012 yilda xam qayta ta’mirlangan.
3	**Qizbuvi** qabrstoni	Telimin g MFY	Qadim zamonlardan buyon Teliming qishlog‘ining shimoliy tomonida “Qiz bibi nomi bilan bog‘liq bo‘lgan (maxalliy tilda Qiz buvi) ziyoratgohi joylashgan.
4	**Eski Qizlarbuvi** qabrstoni	Sanam MFY	Qizlarbuvi qabristoni Sanam MFY Eski shildir qishlog‘i hududida joylashgan qabriston avval Eskishildir deb nomlangan.Keyinchalik qizlarbuvi deb yuritilib kelinadi qabriston nomi o‘sha yerda yashab o‘tgan ulug‘yoshli Qizlarxonaya nomidan kelib chiqib qo‘yilgan
5	**Katta Oqtepa** qabrstoni	Katta O qtepa MFY	Ushbu ziyoratgoh I-VII asrlar arxeakogik yodgorliggi hisoblanib davlat muhofazasiga olingan. Maydoni 70 so‘tihni tasshkil etadi ziyoratgohda joylashgan 3-4 metr balandlikda yagona sag‘ana mavjud bo‘lib, 70 so‘tih maydondan keyin alohida qabriston qilinib vafot etgan aholi vakillari

			dafn etilgan. Ziyorotgoh nomidan kelib chiqib qabristonga katta oqtepa nomi berilgan.
6	**Kichik Oqtepa** qabrstoni	Katta Oqtepa MFY	Kichik oqtepa qishlog‘i baland yerda joylashgani sababli shu nom bila ataladi shuningdek qabriston ham oqtepa qabristoni qadimgi arxealogik yodgorliklari kitobiga kiritilgan.
7	**Kichik Chillamozor** qabristoni	Bo‘riqum MFY	Bo‘riqum MFY da joylashgan bo‘qiqum qishlog‘I huqudida 1967-1968-yillarda qabriston tashkil etilgan asosan o‘sha hududdagi yosh chaqaloqlar dafn qilingan shu sababli qabristonning nomi Chilla mozor deb ataladi.
8	**Kichk Ganjiravon** qabrstoni	Mang`it MFY	Kichik ganjiravon qabristoni bundan II asir avval “Qamish mozori”nimi bilan yuritilgan, keyinchalik mahalliy aholi tomonidan ganjiravon qabristoni deb atala boshlagan.